

YEM-HASHAK O'SIMLIKLARNING QISHLOQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

Yadgorova charos

Termiz Davlat universiteti Biologiya ta'lim yo'nalishi magistranti

Annottatsiya. Yem xashak o'simliklarning tarqalishi, ahamiyati, foydali tomonlari, turlari, to'yimliliği. Ozuqabop O'simliklar, oqsilga boy o'simliklar, dag'al ozuqa.

Kalit so'zlar: yem-hashak, dag'al ozuqa, oqsillar. shuvoq, teresken, makkajo'xori, arpa, tarqalishi, ahamiyati. tegirmon chiqindilari, ko'katlari, kunjara va hk.

Yem-xashak — qishloq xo'jaligi hayvonlarini boqishda ishlatiladigan, tarkibida o'zlashtiriladigan (hazm bo'ladigan) ozuqa moddalari bo'lgan, asosan, o'simlik, hayvonot, mikrobiologik va kimyoviy mahsulotlardan iborat ozuqalar.

Olinadigan manbai, ishlab chiqarish texnologiyasi, tayyorlash va qo'llash usuli, hayvonlarning oziqlanishidagi ahamiyatiga qarab Yem-xashak bir necha guruhlariga bo'linadi. Yem-x.-xashak o'simliklar odatda, ko'kat, xashak, yem, mineral va shirali ozuqalarga bo'linadi.

Yaylovlardagi tabiiy hamda ekilgan o'tlar ko'kat ozuqaga kiradi. Ko'katning quruq moddasi tarkibida protein (6,5—20%), azotsiz ekstraktiv moddalar (35—45%), yog', mineral moddalar, kletchatka va quritilmaganda ko'p miqdorda karotin, vitamin A, S, Ye bo'ladi. Silos, ildizmevalar, xashaki poliz ekinlari mahsulotlari shirali ozuqaga kiradi. Bular tarkibida 75—90% hujayra shirasi, turli vitaminlar bor. Mol boqishda qand lavlagi sanoati, spirt va pivochilik korxonalarida chiqindilaridan ham shirali ozuqa sifatida foydalaniladi. Quruq beda, pichan, somon, poxol, g'alla chorisi, shox-shabbadan tayyorlangan ozuqalar, chigit shulxasi va b. xashak (dag'al xashak) ozuqaga kiradi. Bular tarkibida 25—40% kletchatka bo'ladi. Pichan, ayniqsa, dukkaklilardan tayyorlanganda, oqsil, mineral moddalar va vitaminlarga boy. Xashak hayvonlarni oziqlantirishda to'yimli moddalar manbai bo'lib, ov-qat hazm qilish sistemasi ishini nor-mallashtiradi. 1 kg beda pichanida 0,5—0,52 ozuqa birligi, 120 g hazm bo'luvchi protein, 30—50 mg/kg karotin bor.

Arpa, sulı, makkajo'xori, oq jo'xori, no'xat, tegirmon chiqindilari (kepak, un gardi va b.), yog'-moy sanoati chiqindilari (kunjara, shrot — kukun kunjara va b.) yemta kiradi. Bular oqsil, uglevod va b. turli moddalarga boy bo'lib, to'yimliliği jihatdan boshqa ozuqalardan ustun turadi. Osh tuzi, bo'r, suyak uni, forsizlantirilgan pretsipitat, sintetik azotli birikmalar (aminokislotalar, karbamid, ammoniy tuzlari, vitaminli va fermentli preparatlar, ozuqa antibiotiklari, dori-darmon moddalari va b.lar) mineral ozuqaga kiradi. Yirik shaharlar atrofıdagi xo'jaliklarda mol boqishda oshxona va b. ovqatlanish korxonalaridan chiqadigan oziq-ovqat qoldiqlaridan ham ozuqa sifatida foydalaniladi

Yem-xashak ekinlari — chorva mollari va parrandalarga yem-xashak (ko'kat, pichan, yem, silos) tayyorlash maqsadida ekiladigan o'simliklar. Yem-xashak ekinlariga bir yillik va ko'p yillik o'tlar, xashaki ildizmevali, kartoshkali o'simliklar,

xashaki poliz ekinlari, shirin kartoshka (batat), silos bostirish va yem uchun ekiladigan donli ekinlar kiradi. Hozir jadallashgan dexdonchilik tizimi sharoitida yem-xashak ekinlari yetishtirish mustaqil tarmoq bo‘lib ajratiladi va yem-xashakchilik deb ataladi.

Yem-xashak ekinlarilarining eng katta guruhini ko‘p yillik o‘tlar: dukkakililar — sebarga, beda, shabdar, bersim, esparset, qashqarbeda, oq nilufar va g‘al-ladoshlar (ajriqbosh, betaga, suvbug‘doyiq, oqso‘xta, erkako‘t) tashkil qiladi. Ko‘p yillik o‘tlar sof holda va aralash (mas, sebarga bilan ajriqbosh, beda bilan erkako‘t) ekiladi. Ular yaylov ozig‘i sifatida hamda ko‘k massasi pichan, senaj, silos, o‘t uni, donador oziq va briketlar tayyorlash uchun ishlatiladi. Bu Yem-xashak ekinlari oqsilga (ayniqsa, dukkakililar), vitaminlarga va mineral tuzlarga boy bo‘ladi. Bundan tashqari, ko‘p yillik o‘tlar yerni azotga boyitadi, chunki ular ildizidagi tuganak bakteriyalar havodagi azotni o‘zlashtirish xususiyatiga ega. Ko‘p yillik o‘tlarning aksariyati namsevar o‘simliklardir. Nam yetishmasa, ularning hosili kamayib ketadi yoki butunlay nobud bo‘ladi (qurib qoladi), shuning uchun qurg‘oqchil rayonlarda ko‘p yillik o‘tlar (eng avvalo beda) asosan sug‘oriladigan yerlarga ekiladi.

Yashil konveyr hosil qilish uchun bir yillik o‘tlar ekiladi. Ulardan ham pichan va boshqa ozuqalar tayyorlanadi. Bir yillik dukkakililardan shabdar, bersim, bahorgi va kuzgi yovvoyi no‘xat, no‘xat ekiladi. Oqsilga boy bu o‘simliklar, odatda, bir yillik g‘alla ekinlari — suli, arpaga qo‘shib ekiladi. O‘zbekistonning qurg‘oqchilik rayonlarida qurg‘oqchilikka chidamli bir yillik o‘tlar — sudano‘t, oqjo‘xori, oqjo‘xori-sudano‘t duragaylari, mogar, qo‘noq, shuningdek, cheklangan miqdorda vika, burchoq ekiladi. Ko‘p rayonlarda ko‘kat ozuqa uchun bir yillik o‘t sifatida kuzgi javdar, tariq, soya, o‘ris no‘xat, shuningdek, yangi ekin — tritikale ekiladi. Yaqin vaqtdan boshlab ko‘k massa olish maqsadida pane (bahorgi va kuzgi), perko ekiladigan bo‘ldi.

Sershira oziq uchun xashaki ildizmevalar: nimshirin va xashaki lavlagi, sabzi, turneps ekiladi (qarang Ildizmevalilar). Chorva mollariga qand lavlagi ham beriladi, shuningdek, ularning bargi — palagidan, asosan silos tayyorlanadi. O‘simliklarning bu guruhiga kiradigan asosiy ekin — xashaki lavlagi. Uning ildizmevasi yirik bo‘lib, yaxshi saqlanadi. Hosildorligi 1000 s/ga gacha yetadi. Turneps ertapishar ildizmeva, lekin lavlagiga qaraganda kam to‘yimli bo‘ladi va yaxshi saqlanmaydi.

Silos tayyorlanadigan ekinlar (makkajo‘xori, kungaboqar, xashaki karam va boshqalar) va yem uchun ekiladigan donli ekinlar (suli, arpa, makkajo‘xori va boshqalar) ham xashaki ekinlarga kiradi

Yem-xashak — qishloq xo‘jaligi hayvonlarini boqishda ishlatiladigan, tarkibida o‘zlashtiriladigan (hazm bo‘ladigan) ozuqa moddalari bo‘lgan, asosan, o‘simlik, hayvonot, mikrobiologik va kimyoviy mahsulotlardan iborat ozuqalar.

Yaylovlardagi tabiiy hamda ekilgan o‘tlar ko‘kat ozuqaga kiradi. Ko‘katning quruq moddasi tarkibida protein (6,5—20%), azotsiz ekstraktiv moddalar (35—45%), yog‘, mineral moddalar, kletchatka va quritilmaganda ko‘p miqdorda karotin, vitamin A, S, Ye bo‘ladi. Silos, ildizmevalar, xashaki poliz ekinlari mahsulotlari shirali ozuqaga kiradi. Bular tarkibida 75—90% hujayra shirasi, turli vitaminlar bor. Mol boqishda qand lavlagi sanoati, spirt va pivochilik korxonalarida chiqindilaridan ham shirali ozuqa sifatida foydalaniladi. Quruq beda, pichan, somon, poxol, g‘alla chorisi, shox-shabbdan tayyorlangan ozuqalar, chigit shulxasi va b. xashak (dag‘al xashak)

ozuqaga kiradi. Bular tarkibida 25—40% kletchatka bo‘ladi. Pichan, ayniqsa, dukkaklilardan tayyorlanganda, oqsil, mineral moddalar va vitaminlarga boy. Xashak hayvonlarni oziqlantirishda to‘yimli moddalar manbai bo‘lib, ov-qat hazm qilish sistemasi ishini nor-mallashtiradi. 1 kg beda pichanida 0,5—0,52 ozuqa birligi, 120 g hazm bo‘luvchi protein, 30–50 mg/kg karotin bor.

Arpa, suli, makkajo‘xori, oq jo‘xori, no‘xat, tegirmon chiqindilari (kepak, un gardi va b.), yog‘- moy sanoati chiqindilari (kunjara, shrot — kukun kunjara va b.) yemta kiradi. Bular oqsil, uglevod va b. turli moddalarga boy bo‘lib, to‘yimliliigi jihatdan boshqa ozuqalardan ustun turadi. Osh tuzi, bo‘r, suyak uni, ftorsizlantirilgan pretsipitat, sintetik azotli birikmalar (aminokislotalar, karbamid, ammoniy tuzlari, vitaminli va fermentli preparatlar, ozuqa antibiotiklari, dori-darmon moddalari va b.lar) mineral ozuqaga kiradi. Yirik shaharlar atrofidagi xo‘jaliklarda mol boqishda oshxona va b. ovqatlanish korxonalaridan chiqadigan oziq-ovqat qoldiqlaridan ham ozuqa sifatida foydalaniladi

Dag‘al ozuqa, dag‘al xashak — o‘simliklardan tayyorlanadigan quruq xashak. Tarkibida kletchatka miqsorining ko‘pligi (25—40%) bo‘lishi bilan ajralib turadi. D.o. (pinan, somon, to‘pon, shulxa va b.) o‘txo‘r hayvonlar qishki ratsionining zaruriy qismini tashkil etadi, mollar iste‘mol etadigan ozuqa moddalarning deyarli yarmi D.o.dan olinadi. Bu guruhga kiradigan ozuqalar ratsionning zarur hajmini ta‘minlagan holda ozuqa hazmini yaxshilaydi. D.o.dan pichan shu guruhdagi boshqa ozuqalarga qaraganda to‘yimliroq. Yo‘ng‘ichg‘a, beda esparset, oqso‘xta, bug‘doyikdan tayyorlangan 100 kg pichanda 45—50 ozuqa birligi bor, protein, mineral moddalar, uglevodlar, karotinga boy. Mollarga D.o. berish miqdori ularning yoshi va mahsuldorligiga qarab belgilanadi. Sog‘iladigan sigirlar uchun D.o. me‘yori tirik vaznning 100 kg ga 2—2,5 kg miqdorida belgilanadi. Sigirlarda sut mahsuldorligi ko‘payishi bilan ratsionda D.o. hissasi shirali ozuqalar hisobiga kamaytiriladi.

Konsentrat ozuqalar, konsentratlar — tarkibidaozuqa moddalar miqdori yuqori bo‘lgan yemlar Ozuqa moddalari tarkibiga ko‘ra K.o uglevodli (kraxmal va qandga boy bo‘lgan suli, arpa, makkajo‘xori doni tegirmon kombinatlari chiqindilari, uzum, qand lavlagi turpi, barda va boshqalar) va proteinli (dukkaqli don ekinlari doni, kunjara, shrot, go‘sht, go‘sht-suyak, qon va baliq unlari) guruhlarga bo‘linadi. 1 kg uglevodli Konsentrat ozuqalarda 0,7—1,3 ozuqa birligi va 70—80 g hazm bo‘luvchi protein, proteinli Konsentrat ozuqalarda 0,7—1,2 ozuqa borligi va 180—350 g hazm bo‘luvchi protein bor.

Konsentrat ozuqalardagi energiya konsentratsiyasi hayvonning talabidan yuqoridir. Shuning uchun o‘simlik mahsulotlari bilan oziqlanadigan hayvonlarni tanho konsentrat ozuqa bilan boqib bo‘lmaydi. Hayvonlarning kundalik ratsionida dag‘al, shirali ozuqalar va yoz faslida esa ko‘k o‘tlar bo‘lganda ratsionning energetik va proteinli to‘yimligini oshirish maqsadida konsentrat ozuqalardan foydalaniladi. Hayvonlarga Konsentrat ozuqalar yedirish miqdori ularning mahsuldorligiga bog‘liq bo‘lib, 10–15 kg sut beradigan sog‘in sigirlarga 1 kunda 2,5–3 kg, bo‘rdoqidagi qoramol uchun kunlik semirish 800—1000 g mo‘ljallangan bo‘lsa, ratsion to‘yimligining 40—50% ini konsentrat ozuqa tashqil qilishi mumkin. Qochirish mavsumida nasldor ko‘chqorlarni boqishda va 1 yoshdan oshgan qo‘ylarni bo‘rdoqiga

boqishda har kuni 1 bosh qo‘yga 800—1000 g atrofida Konsentrat ozuqalar beriladi. Cho‘chqa, parrandalar, mo‘ynali hayvonlar ratsioni asosan Konsentrat ozuqalardan iborat.

Oqsilli ozuqalar - o‘simliklar va hayvonlar mahsulotlaridan tayyorlangan, tarkibida protein ko‘p bo‘lgan yem-xashak. Ko‘pchilik mollar uchun yem-xashak ozuqalar — ko‘ko‘t, pichan, don va don chiqitlari, kunjara va boshqa proteinning asosiy manbai hisoblanadi. Ko‘k ozuqalar orasida yosh dukkakli o‘simliklar o‘tida xom protein, ayniqsa, ko‘p. Mas, bedaning 1 ozuqa birli-gida 200 g, xashaki dukkakli usimliklarning 1 ozuqa birligida 320 g gacha xom protein bor. Shuningdek, ularning sifati qam g‘oyat yuqori bo‘lib, tez hazm bo‘lishiga yordam beradigan suvda eruvchi va tuzda eruvchi oqsillar, almashtirib bo‘lmaydigan aminokislotalar ko‘p. Shuningdek, dukkakli ekinlar doni ham proteinga boy: no‘xat va vika 1 ozuqa birligi donida 200 g gacha, soyada 256 g gacha protein bor. Aminokislotalar tarkibi bo‘yicha kunjara (1 ozuka birligida 270—340) va shrotlar (300— 370 g) proteinlari ham to‘la qimmatli yemish hisoblanadi. Hayvon mahsulotlaridan tayyorlangan yemlarda protein miqdori ko‘p va yuqori biologik qimmatga ega. Go‘sh t unining 1 ozuqa birligida 570 g, baliq unining eng yaxshi navlarida 600 g dan ortiq, quruq qon kukuni 1 ozuqa birligida 550 g protein bor. Pivo, non va ozuqa achitqilari ham tarkibida oqsilning ko‘pligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, achitqi hamirturush V guruhidagi vitaminlar va mikroelementlar manbaidir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati

1. Otaboyeva H. va boshqalar. "o simlikshunoslik". Toshkent, Mehnat, 2000 y.
2. Beshimova Sh., Salimova L. "O simiik mahsulotlari etishtirish texnologiyasi va ekologtya". Tashkent, O zbekiston, 1994 y.
3. Bosunoe II.1. "PacmeHuesodcmeo". M. A:ponpoMU3dam. 1986 2.
4. FTtoCINIHOe T.C"PacmeHueeodcmao, M. "Konoc", 1997 2.
5. Bo riyevH. va boshqalar: "Doñ mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash" Toshkent, Mehnat, 1997y.
6. Chirkov V.N. "O 'simlikshunoslik". Toshkem, O zbekiston, 1994 y.
7. Kepepo8 K.H. "buono2ieckue OCHO8l pacmuesod cmeo". BbiCuaR uIKOd. M. 1982 2.
- 8 www.zionet.uz
- ARXIV.UZ